TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQARISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	
МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ.....	2012
Садыков Жaxonгир Насырджанович	



TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIV TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIY-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	
DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	



ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIYAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY Tajribalari	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY Tajribalari VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIYAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	
HUDUDIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abduraimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	



O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduaxadova Zilola Djamoliddinova	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI.....	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	2260
Temirov Muradjon Najmiddinovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI	2266
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
KORXONALARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA GLOBAL BRENDLAR TAJRIBASI	2275
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
ESTIMATING DEMAND AND SUPPLY FOR COTTON-TEXTILE CLUSTER PRODUCTS	2281
Nasimov Bakhtiyor Vasievich	
MOLIVAVIY HISOBOT AUDITINI REJALASHTIRISH JARAYONINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	2288
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR MOLIVAVIY FAOLIYATIDA NATIJA SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	2292
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	
XORAZM VILOYATIDA YOSHLAR BANDLIGINI OSHIRISH ORQALI INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	2297
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
O'ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONINING JORIY HOLATI TAHLILI	2302
Umarova Malika Baxtiyarovna	
BARQAROR IQTISODIYOTNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINING SAMARADORLIGI	2311
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	2315
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
IJARANING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	2318
Djumayeva Guzal Axtamovna	
AGROSANOAT INNOVATION MARKETING FAOLIYATI YURITISH AMALIYOTINING MILLIY XUSUSIYATLARI VA USTUVORLIKLARI TAHLILI.....	2324
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
BALIQCILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON IQTISODIY MUHITIDA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	2332
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich	



TIJORAT BANKLARINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2338
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
RAQAMLI TURIZM TIZIMINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	2344
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISHDA KORXONAGA NISBATAN RAQOBAT BOSIMINI BAHOLASHNINING IMITATSION MODEL (OLMALIQ KON METALLURGIYA KOMBINATI AJ KORXONASI MISOLIDA)	2348
Nazarova Sitorabonu Sharofiddinovna	
DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	2357
Ziyayeva Mukhtasar Mansurjanovna	
SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING IQLIM O'ZGARISHLARIGA TA'SIRI	2362
Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna	
FUNDAMENTALS OF FORMING ACCOUNTING POLICIES FOR LEASING COMPANIES BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS	2368
Baxadirov Alisher Komilovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH.....	2368
Jahongir Gadayev, Zarif Axrorov	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O'RNI	2372
Kasimova Zilola G'ulomiddin qizi	
СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОВАРНОЙ ПОЛИТИКИ НА ЗАРУБЕЖНЫХ РЫНКАХ	2386
Абдуллаев Азиз Курбанович	
XUSUSIY KAPITALNING OPTIMAL TARKIBINING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	2391
Qurbonov Xayrilla	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2399
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2404
Voxidov Oybek Roziqovich	
BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRILISHINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	2409
Muqimov Asrorjon Rasulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAROITIDA DDOS HUYUMLARIGA QARSHI SUN'IY INTELLEKT AGENTLARINI QO'LLASH.....	2413
Bekov Sanjar Nigmandjonovich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2418
Begimova Dilshoda Komiljonovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA ESG INTEGRATSIYASI VA YASHIL SUG'URTA MAHSULOTLARINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	2424
Kadirov Raxim Karimovch	
ECONOMIC ASSESSMENT OF MEASURES TO REDUCE THE SHORTAGE OF FREIGHT WAGONS IN RAILWAY TRANSPORT	2429
Egamberdieva Khurshidakhon Alisherovna	
TIJORAT BANKLARDA OPERATSION RISKLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	2435
Nishanov Shoazam Baxramovich	
O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI	2440
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	



ПРЕДПОСЫЛКИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	2445
Каракулов Фарход Зайпудинович	
O'ZBEKISTON TURIZM SANOATI MUVAFFAQIYATINI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI	2451
Esonboyev Baxodir Bakir o'g'li	
ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA BIZNES SUBYEKTLARINING MOSLASHUVCHANLIGINI BOSHQARISH KONSEPSIYASI	2456
Joldasov Damir Rauajovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2461
Maxmudova Dilafruz Raxmonovna	
DAVLAT BUDJETINING SOLIQLI DAROMADLARI TAHLILI	2466
Shirinov Sabir Erkinovich	
"YASHIL" BANKLARDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBASI	2472
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	
O'ZBEKISTONDA G'AZNACHILIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY MEKANIZMLARI	2478
Kasimova Gulyar Axmatovna, Mallaev Zokir Safarboevich	
CHAKANA SAVDODA INNOVATSION MARKETING SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI TIZIMINI EKONOMETRIK USULLAR YORDAMIDA TADQIQ ETISH	2484
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHGA E'TIBORNI QARATISH	2492
Begamov Safar Xolmurzayevich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УКРЕПЛЕНИЯ РЕСУРСНОЙ БАЗЫ БАНКОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	2496
Хаитбоева Дильноза Абдувохид кизи	
MINTAQALAR IQTISODIYOTINING TARKIBIY-TUZILMAVIY O'ZGARISHLARINI TAHLIL QILISH VA ULARNI BAHOLASH	2507
Toshaliyeva Saodat Toxirovna	
O'ZBEKISTONDA MONETAR SIYOSAT VA SAVDO BALANSI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI EMPIRIK TAHLILI	2512
Solijonova Muxlisaxon Azamatjon qizi	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING BANKLAR MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI	2517
Muxtorov Ulug'bek Hayotjonovich	
NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	2524
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ROLI	2530
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	2535
Usmonova Vasila Botirovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA XORIJIY MAMLAKATLARDA USHBU YO'NALISHDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR BOSQICHLARI	2541
Azimov Saidumar	
YASHIL MOLIVA VA BARQAROR INVESTITSIYALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI	2546
Omonov Otajon Juraqulovich	
ВЛИЯНИЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ НА ПРОЦЕССЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ	2550
Юсупходжаева Гулчебра Бахадирходжаевна, Окилхонов Нодир Окилхонович	



ANALYSIS OF ENHANCING THE BUSINESS ENVIRONMENT AND DEVELOPING SMALL BUSINESSES IN UZBEKISTAN BASED ON FOREIGN AND NATIONAL EXPERIENCE	2555
Abduvoxidov Behzod	
KORXONALARNI QO'SHIB YUBORISH JARAYONIDA FAOLIYATI TUGATILAYOTGAN KORXONALAR MOLIYAVIY HISOBOTINI MHXS ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	2567
Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BAHOLANGAN MAJBURIYATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2575
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
TA'MINOT ZANJIRI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA LOGISTIKA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASI	2580
B.B. Djurayev	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING ASOSIY VA MOLIYAVIY FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	2586
Sonayev Sanjar Nurmamatovich	
SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	2591
Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA YANGI BIZNES-MODELLARNI SHAKLLANTIRISH	2595
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIK VA ENERGETIK TRANSFORMATSIYA SHAROITIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	2599
Salomova Sarvinoz Salimovna	
DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUV JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI	2604
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH AMALIYOTI	2610
Uzoqova Feruza Baraka qizi	
TRANSFORMASIYALASH JARAYONIDA BANK DEPOZIT BAZASINING IQTISODIY AHAMIYATI	2615
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
ELEKTRON SAVDODA ISTE'MOLCHI ISHONCHI VA RAQAMLI TAJRIBANING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIRI.....	2621
Baymuradov Shoxrux Mahmudovich	
HUDUDDA TURISTIK DESTINATSIYALARNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA OVERTOURISM TA'SIRINI KAMAYTIRISH USULLARI.....	2626
Isrofilov Firdavs Ibrohim o'g'li	
FUNKSIONAL HISOBNI JORIY ETISH DAVR TALABIDIR.....	2635
B.Yu. Maxsudov	
STARTAPLAR VA INNOVATSIYALAR ORQALI KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2638
Eminchayev Baxodir Sadikovich	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO IFRS STANDARTLARIGA MOS TAHLILINI AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI (IFRS 9 VA IFRS 15 STANDARTLARINING JORIY ETILISHINING BANKLARNING FOYDA KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI).....	2641
Jumaniyazov Iskandar Baxodirovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINING IQTISODIY MOHIYATI VA BOSHQARUV XUSUSIYATLARI	2645
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2650
Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich	
STRATEGIC INTERNATIONALIZATION OF UNIVERSITIES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR GLOBAL RANKINGS.....	2656
Yunusova Shirin Adxamovna	



ЗНАЧЕНИЕ РЕФОРМ, ПРОВОДИМЫХ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	2662
Гафуров Анвар Базарбаевич	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT VOSITALARI EGALARINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	2667
Temirov Jonibek Abdumavlonovich	
ПРОБЛЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	2673
Саидакбаров Хусниддин Абдусаломович	
SUG'URTA VA DAVLAT BUDJETI, YOXUD O'ZARO MUNOSABATLARGA YANGICHA NAZAR.....	2682
Shennayev Xo'jayor Musurmanovich	
MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ZARURLIGI VA AHAMIYATI	2686
Madaminov In'omjon Ozodovich	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2693
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARINI STRATEGIK BOSHQARISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	2700
O'ktamova Durdona Baxtiyor qizi, Mexmonov Sultonali Umaraliyevich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	2707
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I MODERNIZATSIYASI HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH	2713
Achilov Mashrab Urug'bekovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	2718
Djumanov Turat Alimbekovich	
KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH ORQALI HUDUDLARNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	2722
Rashidov Mels Karimovich, Umarov Xurshidbek Ixtiyor o'g'li	
KORXONALARDA RAQOBAT USTUNLIGINI YARATISHDA YANGILIKLARNI MOLIYALASHTIRISH VA XATARLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI	2727
Umarova Nilufar Abdulkaxor qizi	
MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING STATISTIK TAHLILI VA BANDLIK DARAJASI DINAMIKASI.....	2731
Qosimjonov G'ulomjon Qosimovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHDA RISK-MENEJMENTNING NAZARIY ASOSLARI	2735
Misirov Iskandar Abduvaliyevich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING JADAL RIVOJLANISHI SHAROITIDA O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT INDEKSI O'ZGARISHI VA UNING OMILLI TAHLILI	2740
Karimov Odiljon Boqiyevich	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI INSTITUTSIONAL MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	2746
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
BANK FILIALLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	2753
Xodjakulov Akmal Erkinovich	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TA'MINLASHDA AKTIV VA PASSIVLARNING AHAMIYATI	2762
Raxmatov Xasan Utkirovich	



TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TA'MINLASHDA AKTIV VA PASSIVLARNING AHAMIYATI

Raxmatov Xasan Utkirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Bank ishi kafedrası v.b. dotsenti i.f.d.,

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari likvidligini ta'minlashda aktiv va passivlarning o'rni hamda ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur mavzu doirasida tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari ilmiy jihatdan ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, banklarning moliyaviy barqarorligi va samarali faoliyati uchun aktiv va passivlarni muvozanatli boshqarish, ularning likvidlilik darajasi hamda muddatlar bo'yicha o'zaro mosligi muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Xususan, maqolada tijorat banklari likvidliligini oshirishda aktiv-passivlarni boshqarish tizimining strategik ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, pul muomalasi, aktivlar, passivlar, likvidlilik, foiz stavkasi, rentabellik, risk, kapital, bank balansi, naqd pul, investitsiya, kredit.

Abstract. This article analyzes the role and significance of assets and liabilities in ensuring the liquidity of commercial banks. It also examines the views and research findings of economists who have studied this topic. Furthermore, the study highlights that balanced asset and liability management, their liquidity level, and maturity matching are crucial factors for maintaining financial stability and ensuring the effective operation of banks. In particular, the strategic importance of asset-liability management in enhancing the liquidity of commercial banks is emphasized.

Key words: commercial banks, money circulation, assets, liabilities, liquidity, interest rate, profitability, risk, capital, bank balance, cash, investment, credit.

Аннотация. В данной статье проанализированы роль и значение активов и пассивов в обеспечении ликвидности коммерческих банков. Также рассмотрены научные взгляды и выводы экономистов, проводивших исследования по данной тематике. Наряду с этим обосновано, что сбалансированное управление активами и пассивами, их уровень ликвидности и соответствие по срокам являются важными факторами обеспечения финансовой устойчивости и эффективной деятельности банков. В частности, в статье подчёркивается стратегическое значение системы управления активами и пассивами для повышения ликвидности коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, денежное обращение, активы, пассивы, ликвидность, процентная ставка, рентабельность, риск, капитал, банковский баланс, наличные средства, инвестиции, кредит.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari moliyaviy tizimning ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Ular nafaqat pul muomalasini tashkil etishda, balki iqtisodiyotni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Banklar faoliyatini samarali yuritishda aktivlar va passivlarni oqilona boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu moliyaviy vositalarning puxta va muvozanatli boshqarilishi bankning barqarorligi, rentabelligi hamda, eng muhimi, likvidligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Bank likvidligi deganda, bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyati tushuniladi. Bu esa bank aktivlari va passivlari o'rtasidagi muvozanatni to'g'ri ta'minlashni talab etadi. Aktivlar va passivlar tarkibi, ularning muddati, likvidlilik darajasi hamda foiz stavkalari kabi omillar bankning likvidlik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, mazkur maqolada tijorat banklarining likvidligini ta'minlashda aktiv va passivlarning tutgan o'rni, ularning o'zaro bog'liqligi hamda samarali boshqaruv usullari tahlil qilinadi. Mavzuni o'rganish nafaqat



banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, balki butun moliya tizimining barqaror va samarali faoliyatini ta'minlash nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot mavzusi yuzasidan banklarning likvidligini ta'minlash, shuningdek, aktiv va passivlarni samarali boshqarish masalalari bo'yicha qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

B. Gup va hammualliflarning tadqiqotlariga ko'ra, bank aktivlari va passivlarini boshqarish deganda foiz stavkalari riskini yumshatish, bank likvidligini ta'minlash hamda bankning bozor qiymatini oshirish maqsadida, huquqiy, boshqaruv va bozor sharoitlarini inobatga olgan holda bank balansidagi barcha aktiv va passivlarni bir vaqtning o'zida rejalashtirish tushuniladi [4].

Banklarda aktivlarni boshqarish markaziy masalalardan biri bo'lib, bank balans tarkibini optimallashtirish va yalpi daromadni maksimallashtirish kabi muhim maqsadlarga erishish uchun tegishli daromad va xarajat moddalari hisobga olingan holda aktivlar tarkibi qanday bo'lishi lozimligini aniqlashni talab etadi. Bu ehtiyoj banklardan rentabellik, tavakkalchilik, likvidlik va risklar o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlashni talab qiladi. Mazkur omillar o'rtasidagi optimal nisbatni bank majburiyatlari va kapitali tarkibi hamda aktivlari tarkibi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olmasdan aniqlash mumkin emas.

MDH davlatlari iqtisodchi olimlari va tadqiqotchilarining bank aktivlarini boshqarish borasidagi tadqiqotlaridan foydalanish va ularni chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning asosiy sababi shundaki, MDH davlatlarining bank tizimi shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari O'zbekiston bank tizimiga ma'lum darajada o'xshash bo'lib, bu esa mazkur tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish masalasiga iqtisodchi olimlar turlicha yondashdilar. Jumladan, O.I. Lavrushin "aktiv va passivlarni boshqarishning maqsadi bank bosh strategiyasi natijalarini balans tarkibi va rentabellik ko'rsatkichlari asosida tahlil qilish orqali nomutanosibliklarni bartaraf etish hamda bank faoliyatini risklardan himoyalashdan iborat"ligini ta'kidlaydi [5]. Ushbu masalaga, avvalo, bank strategiyasi nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, strategiya maqsadlar tizimiga asoslanadi va bankning turli vaqt oralig'ida turlicha ustuvor yo'nalishlari shakllanadi.

Shundan kelib chiqib, banklarda aktiv va passivlarni boshqarishning qisqa muddatli va uzoq muddatli jihatlarini farqlash muhimdir. Qisqa muddatli (bir yilgacha) davrda aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy maqsadi me'yoriy risk darajasida sof foiz daromadini maksimallashtirish yoki belgilangan sof foiz daromadi darajasida riskni minimallashtirishdan iborat bo'ladi. Uzoq muddatda esa asosiy maqsad yuqori foyda olish orqali bank kapitalining bozor qiymatini maksimallashtirishdan iborat. Bank kapitali qiymatini oshirish bankning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi hamda aksiyadorlar manfaatlarini ro'yobga chiqaradi.

Banklarda aktiv va passivlarni boshqarishning mohiyati shundan iboratki, alohida boshqaruv usullari (aktivlarni va passivlarni boshqarish) yagona, muvozanatli jarayonga birlashtiriladi. Shundan kelib chiqqan holda, aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy vazifasi bank balansining barcha qismlarini kompleks ravishda boshqarishdan iboratdir [5].

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda banklarning "aktivlari" va "aktiv operatsiyalari" tushunchalari farqlangan holda talqin qilinadi. Xususan, S.A. Zubov fikricha, "tijorat bankining aktivlari deganda o'z va qarz mablag'larini joylashtirish tushunilsa, bank aktiv operatsiyalari likvidlik va xavfsizlikning ma'lum standartlariga rioya qilgan holda yuqori daromad olish maqsadida investitsiyalarni amalga oshirishni anglatadi" [6].

V.V. Osadchiy tadqiqotlariga ko'ra, "tijorat bankining aktivlari bankning buxgalteriya hisobida aks ettirilgan aktiv operatsiyalarining pul qiymatini ifodalaydi. Tijorat bankining aktiv operatsiyalari esa foyda olish va likvidlikni saqlash maqsadida mavjud pul resurslarini joylashtirish bo'yicha operatsiyalar majmuasidir" [7]. Tadqiqotchining izlanishlaridan ko'rinadiki, tijorat bankining aktiv operatsiyalari bo'yicha keng tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, aktivlarni boshqarish va uning bank faoliyatidagi strategik ahamiyati masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan prof. Sh. Abdullayevaning fikriga ko'ra, "aktivlarni boshqarish deganda o'z va jalb qilingan mablag'larni joylashtirish tartibi va yo'llari tushuniladi. Tijorat banklariga nisbatan bu naqd pullar, investitsiyalar, kreditlar va boshqa aktivlarga taqsimlashni anglatadi. Mablag'larni joylashtirishda asosiy e'tibor qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar va kredit operatsiyalariga qaratiladi. Mablag'larning optimal yechimi shunday aktivlarni tanlashdan iboratki, ular bankka maksimal daromad keltirsin. Shu bilan birga, tijorat banklarida fondlarni boshqarish qator omillar ta'sirida murakkablashadi" [8].

Prof. Sh. Abdullayevaning fikrini kengaytirgan holda ta'kidlash mumkinki, bank aktivlarini boshqarish nafaqat jalb qilingan mablag'larni joylashtirishni, balki mavjud aktivlar tarkibini bir shakldan boshqasiga o'tkazish orqali optimallashtirishni ham o'z ichiga oladi. Masalan, bankning kassadagi yoki Markaziy bankdagi mablag'larini qimmatli qog'ozlarga yoki kreditlash operatsiyalariga yo'naltirish orqali aktivlar tarkibini samarali boshqarish mumkin. Bu yondashuv bank likvidligi va rentabelligini muvozanatli ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari likvidligini ta'minlashda aktiv va passivlarning o'ri hamda ularni boshqarish mexanizmlarini kompleks baholashga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik tahlil usullarining uyg'unligiga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining likvidligini boshqarish va bank faoliyatining uzluksizligini ta'minlashda yuqori likvidli aktivlar muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, banklar mavjud mablag'larni kreditlash yoki boshqa aktiv operatsiyalarga yo'naltirish orqali daromadlilikni oshirishga intiladilar. Mazkur jarayonda likvidlik va rentabellik o'rtasidagi muvozanatni saqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining yuqori likvidli aktivlari ulushiga nisbatan aniq talablar belgilangan.

"Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomning 52-moddasiga muvofiq, 2020-yil 1-iyundan boshlab banklarning yuqori likvidli aktivlari jami aktivlardagi ulushi kun yakuniga ko'ra 10 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Ushbu me'yor banklarning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatini mustahkamlashga qaratilgan.

Tijorat banklarida yuqori likvidli aktivlar tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- naqd pullar;
- O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy bankining qimmatli qog'ozlari;
- bankning Markaziy bankda ochilgan hisobvaraqlaridagi mablag'lari (majburiy zaxira hisobvarag'idagi mablag'lar bundan mustasno);
- tavakkalchilik darajasi past bo'lgan mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hamda ularga bo'lgan boshqa moliyaviy talablar;
- investitsion reyting darajasiga ega banklarda chet el valyutasida ochilgan vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar va overnait (bir kunlik) banklararo depozitlar;
- xalqaro moliya institutlari (Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiya banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki, Islom taraqqiyot banki va boshqalar) tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;
- ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari tomonidan chiqarilgan ta'minlangan qarz majburiyatlarini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozlar [1].

Mazkur nizomda yirik qarz va yirik mahsulot (yoki vosita) tushunchalariga ham aniqlik kiritilgan. Yirik qarzdor deganda, hajmi bank birinchi darajali kapitalining 5 foizidan yuqori bo'lgan bir shaxs yoki o'zaro aloqador shaxslar guruhiga tegishli qarzlarni tushuniladi. Yirik mahsulot yoki vosita esa hajmi jami aktivlarning 1 foizidan ortiq bo'lgan bank mahsuloti yoki vositasini anglatadi. Ushbu mezonlar bank aktivlarini diversifikatsiyalash, risklarni boshqarish va monitoring jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil 8-iyunda Adliya vazirligi tomonidan 3441-son¹ bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan ko'chmas mulk va boshqa mol-mulkni sotib olishga hamda unga egalik qilishga, shuningdek yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomiga muvofiq, banklar tomonidan asosiy vositalar va boshqa mol-mulklarni sotib olish tartibi belgilangan.

Bank balansidagi asosiy vositalar daromad keltirmaydigan aktivlar sifatida tasniflanadi. Ularning ulushining ortishi bank aktivlari samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, mazkur nizomning 3-moddasiga asosan, bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yoki foydalanilmayotgan ko'chmas mulk va boshqa mol-mulklarning jami qiymati bank birinchi darajali kapitalining bir barobaridan oshmasligi belgilangan. Bu talab bank resurslaridan oqilona foydalanish va aktivlar tarkibini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olish hamda investitsiya portfelini shakllantirish bo'yicha ham aniq cheklovlar mavjud. Xususan:

- bir yuridik shaxsning ustav kapitalidagi ulushni sotib olish miqdori bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi;
- qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar va ustav kapitalidagi ulushlarni sotib olish bo'yicha jami operatsiyalar bank birinchi darajali regulyativ kapitalining 50 foizidan oshmasligi belgilangan [2].

Mazkur talablar Markaziy bank tomonidan har oy monitoring qilinadi va ularning bajarilishi bank tizimi barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 2020-yil 29-oktabrda 3283-son² bilan ro'yxatga olingan "Bir qarz oluvchi, o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori

1 <https://lex.uz/uz/docs/-6487097>

2 <https://www.lex.uz/uz/docs/-5083195>



to'g'risida"gi nizomga muvofiq, bir qarz oluvchi yoki o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilik miqdori bank birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi lozim.

Shuningdek:

– ta'minotsiz (ishonchga asoslangan) kreditlar bo'yicha tavakkalchilik miqdori birinchi darajali kapitalning 5 foizidan oshmasligi;

– barcha yirik tavakkalchiliklarning umumiy miqdori bank birinchi darajali kapitalining 5 barobaridan oshmasligi belgilangan [3].

Bankka aloqador shaxslar bo'yicha ham quyidagi cheklovlar amal qiladi:

– bir aloqador shaxsga to'g'ri keluvchi tavakkalchilik miqdori bank birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi;

– barcha aloqador shaxslar bo'yicha jami tavakkalchilik miqdori bank birinchi darajali kapitalining 50 foizidan oshmasligi lozim [3].

Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan mazkur talablar banklarda aktivlarni shakllantirish va boshqarishda risklarni maqbul darajada ushlab turish, likvidlikni ta'minlash va ehtimoliy yo'qotishlarning oldini olishga qaratilgan. Shu bilan birga, tijorat banklari belgilangan normativlar doirasida o'z aktivlar portfelini shakllantirish va boshqarishda mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega. Bu esa banklarga bozor sharoitidan kelib chiqib, likvidlik, rentabellik va risk o'rtasida muvozanatni ta'minlash imkonini beradi.

Tijorat banklarida aktivlarni boshqarishda ichki me'yoriy hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bank amaliyotida aktivlarni boshqarish bilan bog'liq siyosat, nizom va tartiblardan iborat ichki me'yoriy-huquqiy hujjatlar qo'llaniladi. Tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlari amaldagi qonunchilik hamda Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.

Tijorat banklari faoliyatida aktivlarni boshqarish bilan bog'liq ichki hujjatlarga quyidagilar kiradi:


- bankning aktivlar va passivlarni boshqarish siyosati;
- bank likvidligini boshqarish siyosati;
- bankning kredit siyosati;
- bankning investitsiya siyosati;
- bankning foiz siyosati;
- "Aktivlar va passivlarni boshqarish qo'mitasi to'g'risida"gi nizom.

Bugungi kunda mazkur ichki me'yoriy hujjatlar aksariyat banklarda ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgan hamda aktivlarni boshqarish jarayonida samarali qo'llanilmoqda. Tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlarini tahlil qilish ularning bank aktivlarini boshqarishdagi ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Bankning aktivlar va passivlarni boshqarish siyosati konseptual hujjat bo'lib, bank faoliyatini tashkil etish va boshqa ichki me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos vazifasini bajaradi. Mazkur siyosat orqali bank aktivlar va passivlarni boshqarishning yagona tizimini shakllantiradi. Aktivlar va passivlarni boshqarish jarayoni bank balansining tuzilmasini, ular bilan bog'liq tavakkalchiliklarni hamda bozor sharoitlarini hisobga olgan holda bankning strategik maqsadlariga muvofiqlashtirishga qaratiladi. Shuningdek, bu jarayon bank marjasini maqbul darajada saqlash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashni nazarda tutadi.

Bankdagi aktivlar va passivlarni boshqarish siyosatining asosiy maqsadi yuqori likvidlikni ta'minlagan holda, risklar maqbul darajada ushlab turilgan sharoitda barqaror va izchil o'sib boruvchi daromad olishga erishishdir.

Tijorat banklarida aktivlar va passivlarni boshqarish uchta asosiy maqsad o'rtasida muvozanatni ta'minlashi zarur: moliyaviy resurslar xavfsizligi, likvidlik va rentabellik. Shu bois banklar aktivlar va passivlarni boshqarishda tavakkalchilik darajasini maqbul chegarada saqlagan holda maksimal rentabellikka erishishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydilar (1-rasm).



1-rasm. Bank aktivlari va passivlarini boshqarish siyosatining asosiy vazifalari³

3 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Aktivlar va passivlarni boshqarish siyosatida belgilangan maqsadlarga erishish uchun vakolat va mas'uliyat darajalari aniq belgilanadi. Bankning foizli hamda savdo operatsiyalari bo'yicha likvidlik va daromadlilik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar ustidan tizimli nazorat o'rnatiladi. Bu esa risklarni o'z vaqtida aniqlash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganligini ta'minlash imkonini beradi.

Tijorat banklari aktivlarini samarali boshqarishda ularning moliyaviy manbai bo'lgan passivlarni boshqarish ham muhim ahamiyatga ega. Banklar turli manbalardan mablag'larni turli muddat va foiz stavkalarida jalb etish orqali resurslar bazasini shakllantiradi hamda foydadorlikni oshirish va likvidlikni ta'minlash maqsadida ushbu mablag'larning optimal kombinatsiyasini yaratishga intiladi. Mazkur yondashuv aktiv va passivlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash, foiz risklarini kamaytirish hamda bankning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi va barqarorligi ularning likvidlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Likvidlikni ta'minlashda bank aktivlari va passivlarini oqilona boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Aktivlar bankning daromad keltiruvchi resurslarini shakllantirsa, passivlar ushbu resurslarning barqaror manbaini ta'minlaydi. Shu bois, aktiv va passivlar strukturasi, ularning likvidlik darajasi hamda muddat jihatidan muvofiqligi bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish imkoniyatini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, banklar likvidlikni ta'minlash jarayonida passivlar bazasini diversifikatsiya qilish, barqaror va arzon resurslarni jalb etish hamda yuqori sifatli va likvid aktivlarni shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratishlari lozim. Shuningdek, aktiv va passivlar muvozanatini strategik darajada boshqarish orqali banklar moliyaviy risklarni samarali nazorat qilishi, foiz va likvidlik risklarini minimallashtirishi hamda iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchan javob qaytarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu munosabat bilan, tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, riskka asoslangan yondashuvni keng joriy etish, likvidlik ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilish hamda ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur chora-tadbirlar banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning ishonchliligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, nafaqat alohida banklar, balki butun moliya tizimining barqaror va izchil rivojlanishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-son bilan ro'yxatga olingan. <https://lex.uz/uz/docs/-2720359>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari tomonidan ko'chmas mulkni va boshqa mol-mulkni sotib olishga hamda unga egalik qilishga, shuningdek, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 8-iyunda 3441-son bilan ro'yxatga olingan. <https://lex.uz/uz/docs/-6487097>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Bir qarz oluvchi, o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan, bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori to'g'risida"gi nizomi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 29-oktyabrda 3283-son bilan ro'yxatga olingan. <https://lex.uz/uz/docs/-5083195>
4. Gup, B.E., & Brooks, R. (1993). Interest Rate Risk Management. Burr Ridge: Irwin Professional Publishing.
5. Lavrushin, O.I. (2003). Upravleniye deyatel'nost'yu kommercheskogo banka. Moskva. 368 s.
6. Zubov, S.A. (1997). Upravleniye aktivami kommercheskogo banka: dis. ... kand. ekon. nauk. Moskva. 180 s.
7. Osadchiy, V.V. (2021). Metodologiya i printsipy raspredeleniya aktivov. Zhurnal prikladnykh issledovaniy, № 6, s. 128–132.
8. Abdullayeva, Sh.Z. (2019). Bank ishi. Toshkent. 322 b.
9. Rose, P.S., & Hudgins, S.C. (2013). Bank Management and Financial Services. 9th ed. New York: McGraw-Hill Education.
10. Mishkin, F.S. (2019). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 12th ed. Boston: Pearson Education.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>